

**QOQ'OZGA TUSHIRILGAN ENG NOZIK HISSIYOT. ODDIY SO'Z YORDAMIDA  
MAHORAT BILAN ISHLANGAN AVTOBIOGRAFIK PORTRET.O'TKIR  
HOSHIMOVNING ASARIDA ONA TIMSOLI**

**Obidjonova R.**

*O'zbekiston Finlandiya Pedagogika instituti talabasi*

**Sayfilloyeva D.**

*O'zbekiston Finlandiya Pedagogika instituti talabasi*

**Annotatsiya:** *Inson zoti bu dunyoga kelgan ekanki, bu hayotda o'zining o'rnini topishi uchun kimdir sababchi bo'ladi. Bunday asosiy sababchilardan eng kattasi bizning otanamizdir, ular bizga mehr berib, oq yuvib oq tarab, kata qiladilar, har birimiz uchun alohida kata mehr ulashadilar. Biz ularning bunday bergan ulkan mehr-muhabbatlariga loyiqmizmi, bilmayman-u, lekin hamisha ularni chin qalbimizdan sevamiz ardoqlaymiz, lekin ba'zi paytlarda ularga azob beramiz-u buni sezmaymiz. Azob bergan odam azob berar ekan-u, buni dunyoning ishi, taqdirning ishi deb qo'yar ekan. Lekin taqdirga insonning o'zi sababchi ekanligini bilmay qolar ekan. Osongina o'z ayblarini dunyoga to'nkayverarkan-u, ayblariga iqror bo'lgan paytda esa vaqt o'tib bo'lganligini, qilgan aybi hech qachon oqlanmasligini keyin tushunarkan. Adibning asarini to'liq o'qib chiqqan odamgina, yuqorida bildirgan fikrlarimning barchasini mag'ziga yetsa ajab emas. Biz qachon kitobni sevib o'qiymiz? Unda tanish qismatlar aks etgan bo'lsa, qahramonlar bilan darddosh, baxtdosh, bo'la olsakgina. Shu nuqtai nazarda, O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" qissasi kitobxonlar qalbidan chuqur o'rin egallagan asar sifatida qadrli. "Dunyoning ishlari" – dunyodagi eng oily tuyg'u- Onaga bo'lgan muhabbat tarannumiga bag'ishlangan. Bu qissa katta-kichik novellalardan iborat. Biroq ularning barchasida men uchun eng aziz odam – onam siymosi bor. Bunday odamlarning hammasi o'z ko'zim bilan ko'rganman. Faqat ba'zilarining ismi o'zgardi, xolos. Bu odamlarning qismati ham qaysidir jihati bilan onamga bog'langan. Dunyodagi hamma onalar farzandiga munosabat bobida bir-biriga judao'xshaydi. Bas, shunday ekan, bu asar sizlarga bag'ishlanadi, aziz Onajonlar!*

**Kalit so'zlar:** *onaizor, muhabbat, e'tibor, qissa, zot, noyob, hissiyot, bolalik, gilampaypoq, kitob, boychechak va boshqalar.*

O'zbek adabiyotida ona obrazining go'zal va betakror namunalarini yaratgan yozuvchilardan biri O'zbekiston xalq yozuvchisi O'tkir Hoshimovdir. Adib asarlarida "Ona" obrazi shu qadar mustahkam vamuhim o'rin tutadi, ularsiz hatto yozuvchining yaxlit ijodini tasavvur qilish qiyin. Ona insonga hayot beradi, yuvib-taraydi, tarbiyalaydi. Ona uchun eng to'tiyo narsa, o'g'ilmi-qizmi, uning farzandi. Ona o'z farzandi uchun hamma narsaga, hatto jonini qurbon qilishga ham tayyor. Shuning uchun bo'lsa kerak, ona haqida behisob she'rlar to'qilgan, dostonlar yozilgan, kata-

katta asarlar bitilgan. Kichik maqollardan tortib, muborak hadislarimizgacha ona madh etiladi, e'zozlanadi. Shu jihatdan — "Dunyoning ishlari" qissasi xarakterlidir. O'tkir Hoshimov ijodida — Dunyoning ishlari qissasi adibning ona obrazini yaratishdagi eng yuqori nuqtasi bo'ldi. Zero, mazkur qissa nafaqat o'zbek kitobxonlari va adabiyotshunoslari, shu jumladan xorijlik badiiy so'z muxlislari qalbini ham zabt etdi. Qissani iste'dodli adib Said Ahmad — "Ijod va jasorat" maqolasida haqli ravishda shunday e'tirof etdi: — "Ayniqsa, "Dunyoning ishlari" asarini qissa emas, doston deb atashni istardim. U qo'shiqday o'qiladi. Uni o'qib turib, o'z onalarimizni o'ylab ketamiz. Shu mushfiq, shu jafokash onalarimiz oldidagi bir umr uzib bo'lmas qarzlarning aqalli bittasini uza oldikmi, degan bir andisha, bir savol ko'z oldimizda ko'ndalang turib oladi." Muallifning mahorati shundaki, u lirik kechinma va epik ko'lam mushtarakligi tabiatiga ham ma'naviy-axloqiy masalalaryechimini, ham inson psixologiyasi teranligini singdira oladi. Turmush tafsilotlari, hayotiy-maishiy detallar, hissiyot quyuqligi adib shakliy izlanishlarini g'oyaviy mazmun bilan boyitadi. Dunyoning ishlari qissasi muallifning onasi vafoti bilan boshlanib uni qabrga qo'yish bilan yakunlanadi. O'tkir Hoshimov qalamiga mansub asarlarda lirik ta'kid turli xil usullar vositasida voqelik bayonini to'ldirib turadigan mohiyatga aylanadi. Xususan, hissiyot ko'lami kitobxonni hayajonda tutib turadigan estetik pafos darajasiga ko'tariladi. Inson zoti bu dunyoga kelgan ekanki, bu hayotda o'zining o'rnini topishi uchun kimdir sababchi bo'ladi. Bunday asosiy sababchilardan eng kattasi bizning ota-onamizdir, ular bizga mehr berib, oq yuvib oq tarab, kata qiladilar, har birimiz uchun alohida kata mehr ulashadilar. Biz ularning bunday bergan ulkan mehr-muhabbatlariga loyiqmizmi, bilmayman-u, lekin hamisha ulrni chin qalbimizdan sevamiz ardoqlaymiz, lekin ba'zi paytlarda ularga azob beramiz-u buni sezmaymiz. Azob bergan odam azob berar ekan-u, buni dunyoning ishi, taqdirning ishi deb qo'yar ekan. Lekin taqdirga insonning o'zi sababchi ekanligini bilmay qolar ekan. Osongina o'z ayblarini dunyoga to'nkayverarkan-u, ayblariga iqror bo'lgan paytda esa vaqt o'tib bo'lganligini, qilgan aybi hech qachon oqlanmasligini keyin tushunarkan. Ona naqadar buyuk zot, u misli ko'rinmagan jannat. Uni qanchalik mahorat bilan kitobga tushirish esa adibning qo'lida namoyon bo'ladi. O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" qissasini kitobxon nechi marta o'qishidan qat'iy nazar, har o'qiganida, ona timsolini yangitdan kashf etadi. Asar shu darajada mukammalki, unda inson o'z onasini qandayligini beixtiyor ko'z o'ngidan o'tkazadi. O'tkir Hoshimovning Dunyoning ishlari qissasi, dunyoda "Ona " degan mo'tabar zotning qanchalar ulug'ligini yana bir bor ta'kidlaydi. Kitobxon kitobni ochgan zahotiy oq muallifning so'ziga beixtiyor ko'zi tushadi. Bu qissa katta-kichik novellalardan iborat. Biroq ularning barchasida men uchun eng aziz odam — onam siymosi bor. Bunday odamlarning hammasi o'z ko'zim bilan ko'rganman. Faqat ba'zilarining ismi o'zgardi, xolos. Bu odamlarning qismati ham qaysidir jihati bilan onamga bog'langan. Dunyodagi hamma onalar farzandiga munosabat bobida bir-biriga juda o'xshaydi. Bas, shunday ekan, bu asar sizlarga bag'ishlanadi, aziz Onajonlar! Bu

qissani onajoniga baxshida qilar ekan, nafaqat o'zining onasi balki dunyodagi barcha onajonlarga atab yozilgani qissani o'qib chiqqan odam albatta angelaydi. O'tkir Hoshimovning "Gilam paypoq" qissasida o'zbek ayolining qanday matonatli, bardoshli, bolasi uchun jonidan ham kechishi aks etgan. "Har yili dam olishga borganimda onamga gilam paypoq olib kelaman. Kavkaz tomonida ko'p bo'ladi. Juba deyishadi, jurabdi deyishadi. Oyim xuddi noyob narsaga ega bo'lgandek, uzundan-uzoq duo qiladi. Shundoq mehribon o'g'li borligini aytib qo'shnilariga maqtanadi. Uning oyog'i kasal. Salqin tushishi bilan shishib ketadi, og'riydi" Onaizor o'g'lining paypoq olib kelganidan shu darajada quvonib qo'shnilariga maqtanadi. Aslidaku, mushfiq onaizorning oyoqlari kasal bo'lishiga o'g'li aybdor bo'ladiku. Lekin o'g'luga hech qachon u tufayli oyog'i kasal bo'lganligini aytmaydi, aksincha "Xa, endi keksalikda, o'rgilay" deb qo'ya qoladi. o'g'li kichkinaligidan juda ko'p kasal bo'ladi. Qorli kechada akalari bilan muz uchib sovqotib uyiga keladi va o'sha kuni kechqurun istmalab, tomog'i og'rib, bo'g'ilib, nafas ololmay chiqadi. Bundan qo'rqqan onaizor tabibni uyiga bitta kalush bilan yugurib boradi. Shunda u oyog'ini kasal qilib qo'ygan bo'ladi. Qissani tugatayotib onaning qanday ulug' zotligini anglash qiyin bo'lmaydi. Biz qachon kitobni sevib o'qiymiz? Unda tanish qismatlar aks etgan bo'lsa, qahramonlar bilan darddosh, baxtdosh, bo'la olsakkina. Shu nuqtai nazarda O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" qissasi kitobxonlar qalbidan chuqur o'rin egallagan asar sifatida qadrli. "Dunyoning ishlari" – dunyodagi eng oily tuyg'u- Onaga bo'lgan muhabbat tarannumiga bag'ishlangan. Yozuvchi kitobining so'ngida "Iltijo" novellasi bilan tugatar ekan. Uning so'ngida barcha onalar o'zining onasiga o'xshashini ta'kidlab o'tgan;

*"Oyi, men keldim... Eshityapsizmi, oyi, men yana keldim..."*

*Qarang, oyi tag'in ko'klam kirdi. Esingizdami, har yili bahor kirishi bilan sizni dalaga olib chiqardim. Siz charaqlagan oftobni, tiniq osmonni, ko'm-ko'k maysalarni ko'rib quvonardingiz. Esingizdami, nevaralaringiz terib kelgan boychechaklarni ko'zingizga surtib, "omonliq-somonliq" qilardingiz..."*

Onasining oldiga borib chin dildan, hech nimaga qaramay suhbatini insonni ichidan g'amga bottiradi. Inson zoti qiziq-da oldida bo'lsa qadrlamaydi, keyin esa afsus chekadi, pushaymon bo'ladi. Ota-bobolarimiz aytganlaridek "Oldingda oqar suvning qadri yo'q" deganlari shundan bo'lsa kerakk. Shuning uchun azizlar ota-onalarimizni, yaqin qarindosh-urug'larimizni o'z vaqtida qadriga yetaylik zero "So'ngi pushaymon o'zinga dushman".

*"Esingizdami, oyi, siz bir marta, atigi bir marta, o'shandayam hazillashib: "Meniyam kitob qilib yozsang-chi, o'g'lim", degandingiz. Men: "Sizning nimangizni kitob qilaman, oyi?" degan edim. Xafa bo'lmang, men hazillashgan edim. Mana, o'sha kitob. Yo'q uni men yozganim yo'q. Uni siz yozgansiz. Men uni qog'ozga tushirib, odamlarga tarqatdim, xolos. Men uni dunyodagi hamma onalar o'qishini xohlayman. Bilaman, dunyodagi hamma onalar yaxshi. Shundoq bo'lsayam, ularning hammasi Sizga o'xshashini xohlayman..."*

O'tkir Hoshimov shu tariqa kitobiga yakun qo'yadi. "Dunyoning ishlari" qissasini barcha onalar uchun yozganini, barcha onalar uni o'qib chiqishini ta'kidlab o'tadi. Har bir kitobxon bu kitobni o'qib bo'lgach "Onaizori"ga bo'lgan hurmati, muhabbati va albatta e'tibori kuchayishi shak-shubhasiz deb o'ylayman va ularga kitobni o'qib chiqishlarini tavsiya etaman.

#### ADABIYOTLAR:

1. O'tkir Hoshimov. "Dunyoning ishlari"
2. "Dunyoning ishlari". Yoshlar nashriyot uyi. Toshkent 2018
3. "Dunyoning ishlari". Uzsmart.uz
4. "Dunyoning ishlari". kh-davron.uz
5. library.samdu.uz